O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI QO‘LLAB-QUVVATLASH ASOSLAR

Tursunqulova Muxlisa Hayotovna
Guliston Davlat Universiteti
Menejment kafedrasi o’qtuvchisi
muxlisatursunqulova033@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Unda davlat tomonidan yaratilayotgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar, soliq va kredit imtiyozlari, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznesni rag‘batlantirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli xizmatlarning o‘rni ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, qo‘llab-quvvatlash, davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar, huquqiy asoslar, soliq imtiyozlari, moliyaviy mexanizmlar, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot.*

Mamlakatimiz hududlarida KBXT rivojlanishini uning YAHMdagi ulushi bo‘yicha baholaydigan bo‘lsak, 2016-yilda respublikamiz hududlarida KBXTning YAHMdagi ulushi Namangan va Jizzax viloyatlarida yuqori darajani tashkil etib, 80,3 foizga teng bo‘lgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida mazkur ko‘rsatkich 78,0 foiz, Surxondaryo viloyatida 75,3 foiz, Xorazm viloyatida 74,2 foizni tashkil etgan. Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasida KBXTning ulushi 50-70 foiz oralig‘ida bo‘lib, hududlar kesimida qiyosiy tahlil qilinganda o‘rtacha darajaga ega bo‘lgan. Ammo Navoiy viloyatida mazkur ko‘rsatkich ancha past ekanligi, ya’ni 37,6 foizga teng ekanligi kuzatilib, mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha baholaganda hududda KBXTning rivojlanish darajasi yetarli darajada emasligini ko‘rish mumkin.

KBXT subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar hamda tadbirkorlik muhitini yaratib berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning miqdor jihatdan ham yildan yilga oshib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2017-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan KBXT (dehqon va fermer xo‘jaliklaridan tashqari) subyektlari soni 218170 tani tashkil etib, 2000-yilga nisbatan 118731 taga, ya’ni boshqacha aytganda 1,8 barobarga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

1.6-rasm. O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari;

Mamlakatimizda KBXT subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bir qator yo‘nalishlarda olib borilmoqda. Amalga oshirilgan tahliliy kuzatishlar natijalariga asoslangan holda biz mazkur yo‘nalishlarning asosiylarini (1.6-rasm)rasmda ko‘rsatib o‘tamiz.

Mazkur yo‘nalishda chora-tadbirlar tizimli va izchil ravishda amalga oshirilib borilmoqda. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham xususiy mulk va tadbikorlikning qonuniy huquqlarini himoya qilish hamda hududlar kesimida biznes muhitni takomillashtirish asosida hududiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratib o‘tilgan.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning ijro etilishi, jumladan, biznes soha vakillari va davlat organlari o‘rtasida samarali muloqot va foydali hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, xususiy mulk va tadbirkorlikning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, viloyatlar va tumanlarda biznesmuhitni takomillashtirish masalalari bo‘yicha, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga, avvalo, viloyatlar, shahar va tumanlarda sifatli davlat xizmatlari taqdim etilishini ta’minlash davlat organlari va tadbirkorlik tuzilmalarining o‘zaro hamkorligini, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini endi boshlagan davrlarda ularni qo‘llab-quvvatlashning yangi samarali tizimini yaratishni taqozo etadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarning hal etilishi maqomi, yo‘nalishi va faoliyati ko‘lami, mulk shaklidan qat’i nazar, tadbirkorlik subyektlarini birlashtirib turuvchi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848 sonli Farmoni, avvalo, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi va biznesning qonuniy manfaatlari muhofazasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyati tubdan takomillashtirilishini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-oktyabridagi “Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 439-sonli qarori. Xalq so‘zi, 2003-yil 12-oktyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-yanvardagi “Respublika hududida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 8-sonli qarori. / www.lex.uz
3. Abdullayev Y. Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010. – 351 b.
4. Abdullayev Y.Yuldashev Sh. Maliy biznes i predprinimatelstvo. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 339 s.
5. Alimov R.X. va boshqalar. Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2004. – 320 b.;